



Jizzax viloyatida

kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020 – yil yanvar – iyun

2020–yilning yanvar – iyunda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 79,2 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 17,2 birlikni tashkil qildi.

2020–yilning yanvar – iyunda 1943 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 83,1 foizni tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 645 ta, sanoatda 332 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 512 ta, qurilishda 170 ta, yashash va ovqatlanishda 83 ta, tashish va saqlashda 36 ta tashkil etilgan.

2020 – yil yanvar – iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Savdo
33,4 %



Sanoat
17,2 %



Qurilish
8,8 %



Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi
26,5 %



Yashash va
ovqatlanish bo'yicha
xizmatlar
4,3 %



Tashish va saqlash
1,9 %

	O'Ichov birligi	2019 – y.	2020 – y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	13291	15711	2420
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	2326	1934	-392
Kichik tadbirkorlikning ulushlari:				
YaHM	%	78,9	79,2	0,3
Sanoat	%	53,7	55,7	2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	100,0	98,8	-1,2
Investitsiya	%	56,0	76,4	20,4
Qurilish	%	97,3	97,0	0,3
Savdo	%	89,2	88,0	-1,2
Xizmatlar	%	64,5	59,4	-5,1
Yuk tashish	%	95,7	96,4	0,7
Yuk aylanmasi	%	98,5	98,2	-0,3
Yo'lovchi tashish	%	96,3	95,7	-0,6
Yo'lovchi aylanmasi	%	98,1	97,2	-0,9
Eksport	%	97,3	55,2	-42,1
Import	%	99,6	90,6	-9



2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da




2020-yilning yanvar-iyunda yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha eng ko'pi Jizzax shahrida – 406 ta, Sharof Rashidov tumanida - 243 ta, G'allaorol tumanida - 186 ta, Forish tumanida - 164 ta, Baxmal tumanida – 149 ta, Zarbdor tumanida - 125 ta, Do'stlik tumanida - 115 ta hamda Paxtakor tumanida - 99 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Yangiobod tumanida - 72 ta.

Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	(+/-)
Jizzax viloyati	2326	1934	-392
Jizzax sh.	686	406	-280
tumanlar:			
Arnasoy	89	65	-24
Baxmal	105	149	44
G'allaorol	184	186	2
Sharof Rashidov	408	243	-165
Do'stlik	91	115	24
Zomin	210	145	-65
Zarbdor	96	125	29
Zafarobod	50	90	40
Mirzacho'l	89	75	-14
Paxtakor	102	99	-3
Forish	163	164	1
Yangiobod	53	72	19



2020 – yil yanvar – iyun holatiga ko'ra yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da




2020 - yilning yanvar - iyun oylarida tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Jizzax shahri - 21,0 %, Sharof Rashidov tumani - 12,6 %, G'allaorol tumani - 9,6 %, Forish tumani - 8,5 %, Baxmal tumani - 7,7 %, Zomin

tumani - 7,5 %, Zarbdor tumani – 6,5 %, Do'stlik tumani - 5,9 %, Paxtakor tumani - 5,1 %, Zafarobod tumani - 4,7 %, Mirzacho'l tumani - 3,9 %, Yangiobod tumani - 3,7 %, Arnasoy tumani - 3,4 %, ga tegishli.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar- iyun	2020 - yil yanvar- iyun	(+;-)
Jami	2326	1934	-392
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	385	512	127
Sanoat	531	332	-199
Qurilish	292	170	-122
Savdo	763	645	-118
Tashish va saqlash	58	36	-22
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	103	83	-20
Axborot va aloqa	34	21	-13
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	20	18	-2
Boshqa faoliyat turlari	140	117	-23

Ma'lumot uchun: 2020 – yilning yanvar – iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda


	2019 - yil yanvar-iyun	2020 - yil yanvar-iyun	Farqi (+;-)
Jizzax shahri	686	406	-280
Sharof Rashidov tumani	408	243	-165
G'allaorol tumani	184	186	2
Forish tumani	163	164	1
Baxmal tumani	105	149	44
Zomin tumani	210	145	-65
Zarbdor tumani	96	125	29
Do'stlik tumani	91	115	24

2020 – yilning yanvar – iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Jizzax shahrida – 406 taga yetdi.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda





Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - iyun holatiga ko'ra*



2020 – yilning yanvar–iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Jizzax shahrida 27,5 birlik, Arnasoy tumanida 21,1 birlik, Mirzacho'l tumanida 19,9 birlik. Zarbdor tumanida 19,0 birlik, Yangiobod tumanida 18,9 birlikni tashkil etgan. Baxmal tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 12,5 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo’jaliklarini qo’shgan holda)

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



- **Eng yuqori ko'rsatkich** Jizzax shahri - 27,5 birlik;

- **O'rtacha ko'rsatkich** Sharof Rashidov tumani - 16,7 birlik;


- **Eng past ko'rsatkich** Baxmal tumani - 12,5 birlik;

- Bundan ko'rini turibdiki, Jizzax tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Baxmal tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni eng past darajaga tushib ketdi.

-


Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish Dinamikasi, yanvar - iyun holatiga ko'ra,

2020 – yilning yanvar –iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 79,2 % ni tashkil qildi. (2019 yilning yanvar - iyunida 78,9 %).





Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)





2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikni tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridaqи ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Jizzax viloyati	55,7	97,0	59,4	76,4
Jizzax sh.	46,2	97,0	29,1	30,5
tumanlar				
Arnasoy	38,1	100,0	99,4	28,7
Baxmal	100,0	100,0	95,3	98,5
G’allaorol	82,1	100,0	99,0	87,6
Sharof Rashidov	100,0	100,0	94,4	94,2
Do’stlik	52,1	100,0	95,8	77,4
Zomin	100,0	100,0	94,3	71,8
Zarbdor	35,4	100,0	99,0	87,6
Zafarobod	18,8	66,5	98,0	84,0
Mirzacho’l	97,5	77,7	97,1	97,2
Paxtakor	40,0	100,0	96,7	91,4
Forish	94,7	100,0	99,2	99,5
Yangiobod	99,7	100,0	98,9	76,4

Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Baxmal (100,0 %),
Sh.Rashidov(100,0 %),
Zomin (100,0 %),
Yangiobod (99,7 %),
Mirzacho’l (97,5 %),
Forish (94,7 %),
G’allaorol (82,1),
Do’stlik (52,1),

tumanlarida.

Qurilishda-

Arnasoy (100,0 %),
Baxmal (100,0 %),
G’allaorol (100,0 %),
Sh. Rashidov(100,0%),
Do’stlik (100,0 %)
Zomin (100,0 %)
Zarbdor (100,0 %)
Paxtakor (100,0 %)
Forish (100,0 %)
Yangiobod (100,0 %)

tumanlarida.

Xizmatlarda-

Arnasoy (99,4 %),
Forish (99,2 %),
Zarbdor (99,0 %),
G’allaorol (99,0 %),
Yangiobod (98,9 %)
Zafarobod (98,0 %)
Mirzacho’l (97,1 %)
Paxtakor (96,7 %)
Do’stlik (95,8 %)
Baxmal (95,3 %)


tumanlarida.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020-yilning yanvar-iyunida






Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining, jami eksportdagi ulushi, % da



2020 – yil yanvar – iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Sharof Rashidov tumanida – 100,0%, Zomin tumanida – 100,0%, Mirzacho'l tumanida – 100,0%, Forish tumanida – 100,0%, Yangiobod tumanida – 100,0%, Do'stlik tumanida – 99,7%, Baxmal tumanida – 95,3%, Arnasoy tumanida – 85,3% ni, eng past ko'rsatkich Jizzax shahrida – 23,8% ni tashkil etdi..




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdag'i ulushi, % da



2020 – yil yanvar – iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Baxmal tumanida – 100,0 %, Sharof Rashidov tumanida – 100,0 %, Do'stlik tumanida – 100,0 %, Mirzacho'l tumanida – 100,0 %, Forish tumanida – 100,0 %, Eng past ko'rsatkich Arnasoy tumanida - 8,3 % ni tashkil etdi.



2020 – yilning yanvar – iyunda tuman va shaharlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi





Tuman va shaharlar bo‘yicha eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (491,5 mlrd. so‘m), Do‘slik (268,4 mlrd. so‘m), Sharof Rashidov (158,4 mlrd. so‘m), Zomin (152,4 mlrd. so‘m) va Paxtakor (96,3 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g’ri keladi. Zafarobod tumanida (24,2 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo‘lib qolmoqda.






2020 – yil yanvar – iyun holatiga ko‘ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tuman va shaharlar bo‘yicha ulushi, % da



Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Sharof Rashidov tumani (100,0%), Baxmal tumani (100,0%), Zomin tumani (100,0%), Yangiobod tumani (99,7%), Mirzacho’l tumani (97,5%), Forish tumani (94,7%), G’allaorol tumani (82,1%), tashkil etdi. Zafarobod tumanida (18,8%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo‘lib qolmoqda.




2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o’sish sur’ati



Tuman va shaharlar bo‘yicha eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Jizzax shahri - 788,5 mlrd. so‘m (2019 yilning yanvar – iyunuga nisbatan o’sish sur’ati 80,1%), Sharof Rashidov 567,1 mlrd. so‘m (99,9%), Zomin tumani 477,2 mlrd. so‘m (97,0%) va G’allaorol tumani 267,1 mlrd. so‘m (98,6%) hissasiga to‘g’ri keladi.



2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o’sish sur’ati




Tuman va shaharlar bo‘yicha eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahri - 479,8 mlrd. so‘m (2019 yilning yanvar – iyunuga nisbatan o’sish sur’ati 97,0%), Sharof Rashidov tumani 424,4 mlrd. so‘m (100,0%), Paxtakor tumani 89,8 mlrd. so‘m (100,0%), Zomin tumani 87,1 mlrd. so‘m (100,0%) hamda Mirzacho‘l tumanida 19,0 mlrd. so‘m (77,7%) qayd etildi.





2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o’sish sur’ati




Tuman va shaharlar bo‘yicha eng ko‘p xizmatlar hajmi Jizzax shahri - 361,0 mlrd. so‘m (2019 yilning yanvar – iyunuga nisbatan o’sish sur’ati 29,1%), Sharof Rashidov tumani 252,2 mlrd. so‘m (94,4%), Zomin tumani 143,9 mlrd. so‘m (94,3%), G’allaorol tumani 115,7 mlrd. so‘m (99,0%), Baxmal tumani 109,8 mlrd. so‘m (95,3%), Do’stlik tumani 62,4 mlrd. so‘m (95,8%) hissasiga to‘g’ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020 – yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **534** ta respondentlar ishtirok etdi.


2020 – yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi* , % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi savdoda – 34,3 % (183 ta), xizmatlar sohasida – 25,7 % (137 ta), sanoatda – 15,5 % (83 ta), qurilishda – 13,5 % (72 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 11 % (59 ta.) ni tashkil etdi.

* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.

**2020 – yil II chorak bo‘yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi
bo‘lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2020 – yil II chorak bo‘yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo‘lgan
kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 – yilning II choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qulay iqtisodiy vaziyat barcha tarmoqlarda tushdi.

Qoniqarli iqtisodiy vaziyat qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 23,2 punktga, qurilish korxonalarida 5,5 punktga kamaygam bo'lsa, savdoda 16,4 punktga, sanoat korxonalarida 11,0 punktga oshdi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida esa 23,2 punktga kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

Joriy yilning II choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 40,7 punktga, xizmatlar sohasi 15,5 punktga, qurilishda 6,9 punktga, sanoatda 2,3 punktga va savdo sohasida 1,7 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019 – 2020 – yillarda II chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 – yilning II choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi sanoatda 0,9 punktga, xizmatlarda 10,1 punktga o'sgan bo'lsa, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 7,8 punktga kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, sanoat korxonalarida 0,9 punktga, xizmatlar sohasi 10,1 punktga, savdo sohasi 4,8 punktga, qurilish korxonalari 20,0 punktga, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qurilish sohasida 2,4 punktga va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 1,7 punktga oshdi.


Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019 – 2020 – yillarda II chorakdagi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi, % da






2020 – yilning II choragi yakunlariga ko‘ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 91 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 15 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 16,5 % i), qurilish – 8 ta (8,8 % i), savdo – 32 ta (35,2 % i) va xizmatlar – 14 ta (15,4 %), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi – 22 ta (24,2 %).


2020 – yil II chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



2020 – yil II chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda



2020 – yil II chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo‘yicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020 – yilning II choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi deyarli faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.


Shu bilan birga, joriy yilning II choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholaydigan korxonalar ulushi sanoatda 43,3 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 21,8 punktga, xizmatlar sohasida 14,3 punktga va savdoda 11,1 punktga o'sishi kuzatildi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushi esa aksariyat faoliyat turlari bo'yicha kamayishi kuzatildi, faqatgina qurilish sohasida 2,9 punktga o'sish kuzatildi.

Joriy yilning II choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda xizmatlar sohasida 14,3 punktga, savdoda 6,5 punktga, qurilishda 4,8 punktga, sanoat sohasida 3,3 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.




2019 – 2020 – yillar II chorakdagi yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko‘ra, 2020 – yilning II choragini o‘tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi qurilishda 9,6 punktga, sanoat sohasida 3,3 punktga kamaydi, qolgan barcha sohalarda o‘sish kuzatildi.

Shuningdek, o‘tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagisi iqtisodiy vaziyat o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 45,3 punktga, savdoda 23,6 qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi korxonalarida 9,1 punktga kamaydi.

Tanlanma kuzatuvimiz davomida yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar aniqlanmadи.



*Tayyorladi: Ishbilarmonlik
muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish
statistikasi bo'limi.*

Tel: 72-221-51-02.